

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING SKILLS IN USING CREATIVE METHODS AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

**Rakhimjonova Gulnoza Shokhnazarovna**  
Lecturer, Fergana State University (FarDU)  
E-mail and phone number

**Abstract**

This article examines the methodology for developing skills in the effective use of creative methods among future primary school teachers. It substantiates the importance of a teacher's creative approach in the educational process, readiness to apply non-traditional teaching methods, as well as independent and flexible thinking in pedagogical activity. The study describes a system of methodological techniques, interactive classes, and practical tasks aimed at developing students' professional competencies through the use of creative methods. From a scientific and pedagogical perspective, the role of creative methods in improving the effectiveness of education, strengthening the methodological preparedness of future teachers, and enhancing the quality of primary education is comprehensively revealed.

**Keywords**

creative methods, primary education, future teacher, pedagogical competence, creative thinking, active teaching methods, methodological preparedness, innovative approach, educational process, professional skills, pedagogical activity.

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIV METODLARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI****Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ metodlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi yoritilgan bo'lib, ta'lim jarayonida o'qituvchining ijodiy yondashuvi, noan'anaviy metodlarni qo'llashga tayyorligi hamda pedagogik faoliyatda mustaqil va moslashuvchan fikrlashning ahamiyati asoslab berilgan. Kreativ metodlardan foydalanish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik usullar, interfaol mashg'ulotlar va amaliy topshiriqlar tizimi tavsiflangan. Ta'lim samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini mustahkamlash hamda boshlang'ich ta'lim sifatini yaxshilashda kreativ metodlarning o'rni ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar**

kreativ metodlar, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik kompetensiya, ijodiy fikrlash, faol o'qitish metodlari, metodik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv, ta'lim jarayoni, kasbiy ko'nikma, pedagogik faoliyat.

Ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi o'quv jarayonini ijodiy tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan kreativ metodlardan samarali foydalanish ko'nikmalari bilan belgilanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativ metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masala bo'lib, bu jarayon ta'lim mazmunining yangilanishi, pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi hamda jamiyatning zamonaviy talablaridan kelib chiqadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi, ularning pedagogik tafakkurini yangicha yondashuv asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. "Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativ metodlardan foydalanish, ularning kasbiy kompetentligini oshirishning asosiy omilidir"[2; Jo'rayev, 2008, 136-bet]. Kreativ metodlar yordamida bo'lajak o'qituvchi an'anaviy dars modelidan chiqib, o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantira oladi, bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. "Kreativ o'qitish – bu o'quvchilarni qaror qabul qilishga, tavakkal qilishga va o'z g'oyalari himoya qilishga o'rgatish demakdir. Boshlang'ich sinf darslarida bunga alohida urg'u berish kerak"[4; Sternberg, 1996. 24-bet.].

Bu jarayonda pedagogika, psixologiya, ta'lim metodikasi kabi fanlar doirasida kreativ metodlarning nazariy asoslari bilan bir qatorda, ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Kreativ metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida refleksiya muhim o'rin tutadi. Talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, dars jarayonida qo'llangan metodlarning samaradorligini baholash hamda o'z ustida ishlash orqali kasbiy o'sishga erishadilar. "Agar o'qituvchining o'zida ijodiy uchqun bo'lmasa, u o'quvchilarda kreativlikni uyg'ota olmaydi" [1; Amonashvili, 1995. 112-bet.]. Kreativ metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, ularning pedagogik faoliyatga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va o'qituvchilik kasbiga ongli munosabatni shakllantiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi amaliyot bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar nazariy bilimlarini real sinf sharoitida sinab ko'rish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kreativ yondashuvni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularda kasbiy ishonchni mustahkamlaydi hamda kelajakdagi pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik yo'nalish hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ metodlar asosida tayyorlash masalasi so'nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ilmiy manbalarda kreativlik pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, u o'qituvchining ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvi, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirish bilan bevosita

bogʻlanadi. “Kreativlik – bu oʻz qadriga ega boʻlgan original gʻoyalarni oʻylab topish jarayonidir. Taʼlimda kreativlikni rivojlantirish savodxonlikni oʻrgatish bilan bir xil darajadagi muhim ahamiyatga ega boʻlishi kerak” [3; Robinson, 2011, 151-bet.].

Boshlangʻich taʼlim bosqichida kreativ metodlardan foydalanish oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etilishi zarurligi qayd etiladi. Boʻlajak oʻqituvchilarning kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalari asosan oliy pedagogik taʼlim jarayonida shakllanadi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan metodik yondashuvni ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Taʼlim jarayoni boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kreativ metodlardan foydalanishi dars sifatini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. “Oʻqituvchining vazifasi bolaning tasavvuri va kreativ fikrlashini uygʻotadigan muhitni yaratishdir. Ijodiy faoliyat insonni kelajakka yoʻnaltiradi” [5; Vigotskiy, 1991, 84-bet.]. Kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish jarayoni tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etishini koʻrsatdi. Kreativ metodlarni bosqichma-bosqich oʻrgatish, refleksiv tahlil, amaliy mashgʻulotlarda muammoli vaziyatlar yaratish va interfaol hamda ijodiy topshiriqlardan foydalanish boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy tafakkuriga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Talabalarda dars jarayonini oʻquvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy maydon sifatida koʻrish tendensiyasini shakllantiradi. Kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalari faqat alohida texnikalarni egallash bilan cheklanmasdan, oʻqituvchining pedagogik pozitsiyasi, qadriyatlar va kasbiy oʻzini anglash darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Talabalar nazariy bilimlarni bevosita amaliy faoliyatda sinab koʻrish orqali ularning samaradorligini anglab yetdilar va bu jarayon oʻz-oʻzini tahlil qilish hamda pedagogik refleksiyani rivojlantirdi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida oʻquvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kreativ metodlarni moslashtirishi, dars maqsadiga muvofiq tanlash va ulardan samarali foydalanish koʻnikmalari muhim ahamiyatga ega.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish pedagogik taʼlimning muhim tarkibiy qismi ekanini asoslandi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish jarayoni tizimli va samarali ekanligi aniqlandi. Kreativ metodlar asosida tashkil etilgan mashgʻulotlar talabalarni amaliy ijodiy faoliyatga faol jalb qilishga imkon beradi. Kreativ metodlardan foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirish talabalarning pedagogik tafakkurini kengaytiradi, darsni oʻquvchi markazida olib borish qobiliyatini shakllantiradi, muammoli vaziyatlarda mustaqil va moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Kreativ metodlarni samarali qoʻllash oʻqituvchining kasbiy motivatsiyasi, pedagogik pozitsiyasi va yangilikka ochiqqligi bilan chambarchas bogʻliqdir. Bu boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini ijodiy va innovatsion yondashuvlar asosida darsni loyihalashga, oʻquvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib samarali pedagogik faoliyat yuritishga tayyorlaydi va ularni kelajakda raqobatbardosh, zamonaviy taʼlim talablariga javob beruvchi oʻqituvchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amonashvili, Sh. A. Размышления о гуманной педагогике. Moskva: Izdatelskiy Dom Shalvi Amonashvili, 1995. 112-bet.
2. Jo‘rayev R.X. va boshqalar. Pedagogik terminlar lug‘ati. Toshkent: "Fan", 2008. 136-bet.
3. Robinson, K. Adab: Out of Our Minds: Learning to be Creative. Chichester: Capstone Publishing, 2011. 151-bet.
4. Sternberg, R. J., & Williams, W. M. How to Develop Student Creativity. Alexandria, VA: ASCD, 1996. 24-bet.
5. Vigotskiy, L. S. Воображение и творчество в детском возрасте. Moskva: Prosveshenie, 1991. 84-bet.

